


48. Uch xonali sonlarni taqqoslash

Yondosh mavzu:
buxgalterlar

Uch xonali sonlar
yuzliklar, o'nliklar, birliklar




Shaklni 4 ta
teng qismga
bo'ling.



1. Har bir xodim bir oyda kamida 175 soat ish joyida bo'lishi kerak. Buxgalterga ishchilarning qaysi biri ushbu qoidaga rioya qilmaganligini aniqlashga yordam bering.

Xaydarov	173 h	Bekmurotov	175 h
Sulaymonov	180 h	Maxmudov	174 h
Egamov	176 h	Kamolov	178 h

2. Tasvirlangan har bir sonda necha yuzlik, o'nlik va birlik bor? Har bir sonda nechta raqam bor? Sonlarni taqqoslang. Qanday xulosa chiqarish mumkin?



Istalgan uch xonali son ikki xonali va bir xonali sonlardan katta.

3. Sonlarni taqqoslang.

34 170

301 9

45 7

400 20

89 103

450 405

4. Noyabr oyida Madinada 27 tanga, dekabrda esa 13 tanga ko'proq to'plagan. Akmal noyabr oyida 32 tanga, dekabrda esa 8 tanga kam to'plagan. Bu vaqt ichida kim ko'p va qancha ko'p tanga to'plagan?

48. Uch xonali sonlarni taqqoslash



5. Ifodalarni taqqoslang.

$$a \square a + 290$$

$$m + 21 \square m + 210$$

$$d + 453 \square d + 289$$

$$c + 120 \square c + 380$$

$$b \square b - 20$$

$$n + 8 \square n + 163$$



6. Buxgalter yaxshi hisoblay olishi kerak. Misollarni yeching va ulardan qaysi biri ortiqcha ekanini aniqlang.

$$45 + (8 + 9)$$

$$(92 - 46) + 16$$

$$28 + (18 + 16)$$

$$(99 - 8) - 29$$

$$75 - (6 + 7)$$

$$94 - (40 - 4)$$

87



7. Jadvalda turli kasblar uchun ish kunining boshlanish va tugash vaqti ko'rsatilgan. Har bir kasb egasi necha soat ishlashini aniqlang. Siz necha soat ishlaysiz?

Ishchi	Buxgalter	Ofitsiant
7:00	9:00	14:00
17:00	18:00	23:00



8. 234, 290, 400, 89 sonlarini xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing. 89 sonida nechta yuzlik va nechta onlik bor? 6 sonida-chi?



9. Usta 23 ta kosa va 17 ta lagan yasadi. Uning shogirdi 12 ta kosa va 14 ta lagan yasadi. Ular jami nechta idish yasashgan? Usta nechta ortiq buyum yasagan?



10. Sonlarni taqqoslang.

$$657 \square 765$$

$$275 \square 192$$

$$431 \square 89$$

$$65 \square 320$$

$$141 \square 9$$

$$5 \square 112$$